

KOMPYUTER LINGVISTIKASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Siddiqova Mahliyo O'tkir qizi

*Oqdaryo tumani 40-umumtalim maktabining ona tili va adabiyot
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu tezisda muallif tomonidan kompyuter lingvistikasining shakllanish dastlabki bosqichlari, Tabiiy tillar grammatikasi formal modeli, shuning bilan birga, tillarni avtomatik tarjima qilish, tillarni o'rgatish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir va tahlil etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos bo'lgani holda kompyuter lingvistikasi yo'nalishiga zamin yaratilgani, Formal grammatika nazariyasi shakllandi, til va uning alohida aspektlari modelini yaratishga e'tibor qaratilgani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: lingvistika, korpus, mashina tarjimasi, lingvistik resurslar, til algebrasi.

Kompyuter lingvistikasi XX asrning 50 - yillarida yuzaga keldi. Bu fanning shakllanishida Kopengagen struktural tilshunoslik maktabi (glossematika)ning asoschisi Lui Yelmslevning g'oyalari ziga xos «turki» vazifasini tagan. U hatto til hodisalarini matematik bayonda tushuntiradigan fanning nomini ham taklif etgan. Olimning fikricha, bu fan «Til algebrasi» («Lingvistik algebra») deb atalishi lozim edi. Amerikalik tilshunos Noam Xomskiyning formal grammatika, transformatsion grammatika haqidagi qarashlari bevosita matematik lingvistikaning alohida ynalish sifatida yuzaga kelishiga sabab blgan. Matematik lingvistika fani kompyuter lingvistikasi sohasining shakllanishiga asos bldi. Tabiiy tillar grammatikasi formal modeli avtomatik tarjima qilish, tillarni rgatish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir va tahlil etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos blgani holda kompyuter lingvistikasi ynalishiga zamin yaratdi.³

Kompyuter lingvistikasi inglizcha «computational linguistics» soʻzining kalkasidir. Mashina tarjimasining asoschilari muhandis va matematik olimlar boʻlib, keyinchalik bu ishda tilshunoslar ham faol qatnasha boshlagan. Shu tariqa mashina tarjimasi gʻoyalari butun dunyoda nazariy va amaliy tilshunoslikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Formal grammatika nazariyasi shakllandi, til va uning alohida aspektlari modelini yaratishga eʼtibor qaratildi. Tilning formal jihatlari matematik lingvistika fanida ishlab chiqilib, bu oʻz navbatida, kompyuter lingvistikas fanining yuzaga kelishi uchun poydevor boʻldi. Shu asosda tilshunoslikning yangi yoʻnalishi boʻlgan kompyuter lingvistikasi va tilshunoslikning bir qator nazariy va amaliy yoʻnalishlari vujudga keldi. Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi boʻlib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi. Kompyuter lingvistikasining nazariy va amaliy asoslarini belgilashda daniyalik olim L.Elmslev, amerikalik olimlar N.Xomskiy, K.Shenon kabilarning xizmati kattadir. Kompyuter lingvistikasining amaliy muammolari XX asrning oʻrtalarida vujudga keldi. Bu narsa birinchi navbatda mashina tarjimasi (MT) bilan aloqadordir. 1954-yil AQSHda Jorjtaun universitetida mashina tarjimasi boʻyicha dunyoda birinchi tajriba oʻtkazildi va IBM - 701 rusumli tarjima qurilmasi yordamida 250 ta soʻzdan iborat 60 ga yaqin ruscha gaplarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni amalga oshirildi. Shu bilan birga 1955-yilga kelib BRSM rusumli mashina qurilmasi yordamida inglizcha gaplarni rus tiliga tarjima qilish jarayoni amalga oshirildi (I.K.Belskaya, L.N.Korolev, S.N.Razumovskiylar loyihasi asosida). Shu tajribalar asosida KL yoʻnalish sifatida 1960-yilga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi. Angliya, Fransiya, Avstriya mamlakatlarida ham mashina tarjimasi muammolariga qiziqish boshlandi. Bugungi kunga kelib esa yurtimizda ham mazkur sohaga oid koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda va shuningdek, sohaga oid bir qator yechimini kutayotgan dolzarb masalalar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduraxmonova N. Zamonaviy lingvistik korpuslarning kompyuter modellari. "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 1(30), 50-58 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215(online)
2. A. Eshmuminov. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (Phd)... dis.avtoref.- Toshkent, 2019
3. Пўлатов , А.Қ. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011.-500 б;
4. Пўлатов, А. Қ. Компьютер лингвистикаси / Масъул муҳаррирлар; А.А. Абдуазизов, М.М. Орипов. – Т.: Akademnashr, 2011. – 520 б. – Б. 7